


**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ТАЪЛИМ, ФАН ВА ИННОВАЦИЯЛАР ВАЗИРЛИГИ**

НУКУС ИННОВАЦИОН ИНСТИТУТИ

**НУКУС ИННОВАЦИОН ИНСТИТУТИНИНГ ОЧИЛИШ
МАРОСИМИГА БАҒИШЛАНГАН
“ИЛМ, ФАН ВА СИФАТЛИ ТАЪЛИМ: ДОЛЗАРБ
МУАММОЛАР, ЮТУҚЛАР ВА ИННОВАЦИОН
ТЕХНОЛОГИЯЛАР”
МАВЗУСИДАГИ**

Халқаро илмий-амалий анжумани



9-10 ИЮНЬ, 2023

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ТАЪЛИМ, ФАН ВА ИННОВАЦИЯЛАР ВАЗИРЛИГИ

НУКУС ИННОВАЦИОН ИНСТИТУТИ

НУКУС ИННОВАЦИОН ИНСТИТУТИНИНГ ОЧИЛИШ
МАРОСИМИГА БАҒИШЛАНГАН “ИЛМ, ФАН ВА СИФАТЛИ
ТАЪЛИМ: ДОЛЗАРБ МУАММОЛАР, ЮТУҚЛАР ВА ИННОВАЦИОН
ТЕХНОЛОГИЯЛАР” МАВЗУСИДАГИ

Халқаро илмий-амалий анжумани материаллари

“Илм, фан ва сифатли таълим: долзарб муаммолар, ютуқлар ва
инновацион технологиялар” мавзусидаги халқаро илмий-амалий
конференция, 2023 йил 9-10 июнь

Э.Х.Мусаев. Использование электронных образовательных ресурсов на уроках русского языка и литературы	611
О.Ганиев. Отрабатывание и выполнение генерации кривых на занятиях компьютерной графикой	613
Orinbaeva Z.A., Orinbaeva A.O. Epidemiya teoriyasidaǵı bazı bir shegaralıq mäseleniń juwiq sheshimi	616
Қ.Одилов. Таълим сифати, сифатли таълим ва маънавий тарбия уйғунлиги	618
А.Кудайназаров. Таълим соҳасига киритилган инновациялардан ўқитувчининг ўз фаолиятида фойдаланишнинг аҳамияти	621
А.Турдымуратова. Тәлимде инновацион педагогикалық технологиялар	624
O.Fozilova. Bolalarni maktabga tayyorlashda innovatsion yondoshuv usullari	628
Х.Ҳ.Ҳайдаров. Арт педагогик технологиялар креатив қобилиятларни ривожлантириш технологияси сифатида	631
Н.Ҳакимова. Ўзбекистонда аёлларга бериләтган юксак эътибор	635
З.Шаниязова. Давлат томонидан қишлоқ хўжалиги корхоналарини молиялаштиришда замонавий усулларни қўллаш	637
Э.Нурымбетова. Критерии качественной подготовки студентов-психологов в современном мире	645
Г.Қанаатова. Эпослық шығармалардың жас әўладты тәрбиялаўдағы әҳмийети	647
D.Israilova. Chet tilini o'rganishda ijodiy vazifalarning ahamiyati	651
D.Nuraliyeva. Chet tilini o'rganishda yozish ko'nikmalarini shakllantirish	658

Chet tilini o'rganishda ijodiy vazifalarning ahamiyati

Dilorom Israilova Shomaxamatovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
dilorom_76@mail.ru tel: 93/5392655

Chet tilini o'qitish orqali kelajakda davlat nufuzini rivojlantirishga erisha oladigan yoshlarga ta'lim tarbiya berish, o'quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olgan tarzda ta'lim sifatini oshirib borish dolzarb ahamiyat kasb qilmoqda. Ta'lim samaradorligini oshirish orqali yoshlarni ilmli, mustaqil fikrlovchi, faol, erkin, yetuk inson qilib tarbiyalash va shakllantirishga erishiladi. Bunday samaradorlikka erishishda ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan o'quv jarayonida foydalanish va ularni amalga oshirishda o'qituvchining salohiyati katta ahamiyatga ega. Bu ayniqsa chet tillarini o'qitishda bugunning dolzarb masalalardan biridir.

Hozirgi davrda chet tillarini o'rganishga talab ortgani sari uni o'qitishning samarali shakllarini izlashni, ko'proq yangicha yondoshuvni taqazo etmoqda. Chet tili va madaniyatini o'rgatishga mo'ljallangan o'quv materiallarni o'zlashtirish darajasi o'rganuvchida biroz sustroq kechishi ko'p kuzatiladi. Yaxshi natijaga erishishda tanlangan o'quv materiallarining aktual hamda, qiziqarli bo'lishi bilan birgalikda o'quvchida o'rganishga kuchli hohish ham bo'lishi kerak, shuningdek o'qituvchi zukko va mahoratli bo'lishi muhimdir. Buning uchun o'qituvchi hamisha izlanishi, o'z ustida ko'proq ishlashi, talabaning chet tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish yo'llarini o'rganib chiqishi, o'ziga xos va betakror metodlar qo'llashi muhim rol o'ynaydi. Chet tilini o'rganishda ijodiy ishlarning vazifa qilib berilishi esa ushbu maqsadlarni amalga oshirishga yo'l ochadi.

“Tarbiya, ta'lim, madaniy rivojlanish uz-uzidan insonni tadqiqotchiga

aylantirmaydi. Buning uchun uziga xos rux, muxabbat, intilish kabi xolatlar zarur. Tafakkurning dogmatikligi dunyoqarashning torligi va noxolislik ijodiy faoliyatga zid xususiyatlardir. Ijod inson uchun buyuk lazzatdir. Zotan, “eng buyuk lazzat ruxiy lazzatdir” (Ibn Sino)”. [1. 6-bet]

Ijodiy ish talabalar o'qish faoliyatining bir turi bo'lib, o'z vazifalariga ega va o'quv faoliyatidan ma'lum o'ziga xos xususiyati bilan, ya'ni o'qituvchining bevosita boshqaruvi ostida amalga oshirilishi bilan ajralib turadi. Ijodiy ish anchayin murakkab va ko'p jihatlarni o'z ichiga oladi. Bunga texnik-tashkiliy, tarbiyaviy va psixologik jihatlarni misol qilib ko'rsatish mumkin. Uning asosiy vazifasi talabalarning o'rganayotgan predmetiga qiziqishi tufayli faollashuvi va shaxsan izlanishini rivojlantirishdir. Ta'lim berishda asosan talabani maksimal fikrlashga undovchi vazifalar topshirish muhimdir.

Chet tilini o'rganish nutq faoliyatining barcha turlari o'qish, yozish, gapirish, tinglash bilan uzviy bog'liqlikda amalga oshiriladi. Lekin har biriga alohida yondoshish kerak. Nutq faoliyatining har bir turi o'ziga xos mashqlarni bajarish orqali rivojlantiriladi va mustahkamlanadi. Talabalarning chet tilida so'zlash sifatini oshirish uchun vositali (kitob orqali) va bevosita (og'zaki nutq) ta'sirni kuchaytirish kerak. Bunda nutq ko'nikmalarini muntazam rivojlantirishga yordam beruvchi vazifalar, mashq va materiallar:

	-beixtiyor
yodda qoladigan bo'lishi;	-mavzuga doir
so'zlar muntazam takrorlanib turishi;	-mashqlar
doimo bir –birini to'ldirishi;	- turli
variantlarda o'zgartirib turilishi;	-
perefraza qilib (o'zgacha ifoda etib) borilishi;	-
qiziqarli va informatsiyaga boy bo'lishi kerak.	Ushbu

qo'yilgan maqsadga erishish uchun hozirgi davr o'qituvchisi o'ta bilimli,

izlanuvchan va o'quvchilarni o'z faniga qiziqтира oladigan darajada, bir-biriga o'xshamagan rang-barang dars o'ta olishi, interfaol usullardan darsning qaysi bosqichida qanday turidan foydalana olish kerakligini bilish lozim. Demak, ta'lim samaradorligining asosini belgilab beruvchi omil, o'qituvchi salohiyatining birinchi o'rinda turuvchi komponenti bu uning ijodkorligidir. Chunki, ijodkor o'qituvchi har doim yangiliklardan habardor, izlanuvchan bo'lib, o'z ustida tinmay ishlaydi, zamon bilan hamnafas bo'ladi.

Inson ijod qilmasa, yangi narsalarni yaratmasa, jamiyat umuman taraqqiy qilmagan bo'lardi. Ayniqsa hozirgi sharoitda inson ijodkorligiga bo'lgan talab nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etadi. XX asrda bu eng ta'sirchan muammolardan biriga aylandi. *“O'tmish davrlarda insoniyat xech qachon o'z rivojlanishining ko'p yo'nalishlarida bu qadar muammolarga duch kelgan emas edi, ularni xal qilish zarurati esa yangi g'oyalarni, original fikrlaydigan kishilarni shakllantirishni talab qilmoqda. Shuning uchun tadqiqot muammosi faylasuflarning, psixologlarning, sotsiologlar va pedagoglarning diqqat - e'tiborini tobora ko'proq o'ziga qaratmoqda.”* [1. 6- bet]

Chet tilini mukammal o'rganish uchun eng avvalo maqsad aniq bo'lishi va uni o'rganishga intilish kuchli bo'lishi kerak. O'qituvchi sodda tilda yozilgan, til darajasi talabning bilimiga mos keladigan chet tildagi badiiy kitoblarni sinfdan tashqari o'qishga tavsiya etib borishi kerak. Voqealar rivoji va qisqacha mazmuni haqida so'zlab bersa talabalarning faolligini rag'batlantirish, o'qish ko'nikmalarini va individual o'qish qobiliyatini yanada rivojlanishiga hissa qo'shadi. Maqsadni aniqlash uchun esa:

- maqsadga qanday vositalar bilan erishish mumkinligini rejalashtirish;
- asosiy g'oyalarga e'tiborni qaratish, arziyas narsalarga e'tibor bermaslik;

- hamma narsa to'liq va to'g'ri tushunilganligini tekshirish;
- tushunmaslik muammolarini aniqlash;
- nimani bilganini va bilmoqchi bo'lganini aniqlash;
- matn yuzasidan savollar berish;
- matndan javoblarni tekshirish;
- taxminlar to'g'ri yoki yo'qligini tekshirish;
- javoblar to'g'ri - noto'g'riligini yoki xato qayerdaligini tekshirish va bartaraf etish kerak bo'ladi.

"Ko'plab xorijiy tillarni va ularning madaniyatlarini o'rganishda, o'qish - bu yagona motivatsiyadir, chunki o'qish orqali chet tilini o'rganish va o'sha tildagilar bilan muloqotga kirishish mumkin" [2. 537-bet].

Til o'rganishga qiziqishni oshirish uchun o'qituvchi chet tili darsini metodik jihatdan to'g'ri va didaktikaga boy tashkil qilishi muhim ahamiyatga ega. Dars jarayonida talabaga ma'lum nazariy bilimlar berish, faoliyatning ayrim turlari bo'yicha ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ma'naviy fazilatlarini shakllantirish, o'quvchi bilimni nazorat qilish va baholash o'qituvchidan yuksak mahorat va epcillikni talab qiladi. *"Zamonaviy o'qituvchi o'zi ta'lim jarayonida "aktyor" emas, balki "rejissyor" bo'lishi kerakligini tushunishi kerak.* [3. 263] Bunday vazifa va topshiriqlarni tanlashda har bir o'qituvchi mashqlarni qiziqarli, mantiqan assotsiatsiyalanuvchi, ijodiy izlanishga stimuly beruvchi va informatsiya berishda dadillikka undovchi ekanligiga e'tibor berishi kerak. Shu bilan birga u har bir talabaga do'stona yondoshishi, talabaning erkin va o'ziga ishonch bilan ishlashiga, fikrlashiga ijodiy ta'sir ko'rsatadigan qulay muhit yaratishi kerak.

Ijodiy fikrlashning quyidagi ko'rsatkichlarini ajratib ko'rsatish mumkin:
-fikrlarning ravon kelishi - ya'ni, belgilangan vaqt birligida g'oyalarning miqdori;

- o'zgaruvchanligi – ya'ni, bir g'oyadan boshqasiga yo'naltirishga qodirligi;
- originalligi – ya'ni, boshqalardan ajralib turuvchi, betakroriligi;
- bilishga intiluvchanligi – ya'ni, atrofda muammolarni xis qiluvchanligi;
- fantastikligi – ya'ni, xayoliy mazmunga boyligi;

Ijodiy fikrlashga undovchi vazifalarning tez-tez berib borilishi talabalarda tashabbuskorlik, serg'ayratlik, assotsiatsiya kengligi, kuchli xotira, mustaqillik, maqsadga erishishga intiluvchanlik, kuzatuvchanlik kabi xislatlarni mustahkamlab, boyitib borishga albatta o'z xissasini qo'shadi.

Ijodkorlikni shakllantirishda uchraydigan ziddiyatlarni ham aytib o'tish mumkin. Ushbu ziddiyatlar shundan iboratki, ijodiy ishni amalga oshirishga intilishda talabning bilim va tajribasi yetarli bo'lmasligi mumkin. Shuningdek, talabning o'zi tabiatan biroz bo'lsada kreativ bo'lmasa, uni bevosita bunga undash va o'rgatish biroz qiyin kechadi, bundan tashqari talabada jamoat oldida, guruh oldida so'zga chiqishda biroz uyalish hissi ustun turishi, dadillik yetishmasligi mumkin. Ushbu ziddiyatlarni bartaraf etish uchun kreativlikni ko'rsatishga qulay sharoit yaratish, ya'ni situatsiyalarni umumiy izlash, original taklif va mustaqil yondoshuvlarni kollektivda muhokama qildirish, o'quv jarayonida ijodkorlikka mo'ljallangan maxsus elementlarni kiritish (masalan: evristikaga oid dasturlar, tavsiyanomalar, qat'iy chegaralamaydigan qoidalar) muhim o'rin tutadi. Bundan tashqari o'qituvchi talabani qo'llab –quvvatlab, rag'batlantirib turishi kerak.

Ijodiy ish taqdimoti jarayonida nutq faoliyatida ayrim grammatik xatolar uchrashi kuzatiladi. Bunday hollarda hadeb xatoga urg'u bermasdan, balki so'zlovchining barcha so'z boyliklarini ishlatib, erkin so'zlashiga, muammolarni qanchalik hal etib, xulosa chiqarganiga asosiy e'tiborni qaratish kerak. Asosiysi bunda tashabbuskorlikni bo'g'ib qo'yimasligi, har qanday g'oyaga, fikrga hurmat

bilan munosabatda bo'lishi, yordamlashishi, biroq o'z fikrini o'tkazmasligi kerak. Ishga xulosa chiqarishda ham o'qituvchining roli juda muhim. Ijodiy ishni baholashda uni dolzarbligi, ijod qilgan ishtirokchining ishbilarmonlik xislati va ijodiy qobiliyatini, qarashlarning (fikrlarning) yangiligini hisobga olishi kerak. Shuningdek ishni o'qituvchining o'zi baholashi yoki boshqa guruhga baholatishi ham mumkin.

Ijodkorlikni shakllantirishda intuitsiyadan foydalanishga urinishni, ijobiy emotsiyalarga tayanish va tavakkalchilik qilishini qo'llab –quvvatlash, talabaning o'z kuchiga ishonchini shakllantirish ham muhimdir. Talabalarning mustaqil va ijodiy fikrlariga yondoshib bajargan ishlariga taqdimotlarini misol qilib keltirish mumkin. Bunda talaba zakovatiga, mantiqiy fikrlariga va xotirasiga tayangan holda belgilangan vaqt miqdorida guruh oldida so'zga chiqadi, hamda izlanishlar natijasida topgan materiallar ketma-ketligini ijodkorlik bilan namoyish qiladi.

Taqdimot qilishning afzalligi quyidagilardan iborat:

- talabada chet tilidagi nutq mexanizmi, tilni egallash darajasi oshadi
- bilimdonlik va dunyoqarashi darajasi kengayadi
- topgan materiallarini ketma –ketligini mantiqan bog'lab, dalillar va asoslar bilan jamoat oldida erkin va ravon bayon etish qobiliyati shakllanadi
- o'zining fikr mulohazalarini bildirgan holda xulosalash va eng asosiysi o'ziga ishonch ortadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bu kabi vazifalarni berish orqali o'quvchilardagi egallangan so'z boyligini ishga tushirishga, ularni bir sidra takrorlanib mustaxkamlanishiga, so'z va jumladan to'g'ri foydalanishlariga, imlo va grammatik jihatdan e'tiborli bo'lishlariga, fikrlash doiralarini kengaytirishga erishish mumkin. Og'zaki nutq va yozish ko'nikmalari chet tilini o'rganishda

salmoqli ahamiyatga ega. Ularni shakllantirish ijodiy yondoshuv orqali amalga oshirilsa o'rganuvchiga ko'proq quvonch va kayfiyat bag'ishlaydi. Agar o'qituvchi o'quvchilarning egallagan ko'nikmalarini maqsadli mashg'ulotlar bilan rivojlantirsa, avtomatik ravishda ularning fikrlash qobiliyatlarini ham kengaytiradi. O'quv jarayonida yangi metodlarni qo'llash, o'yinlardan foydalanish, biroz ijodiy yondoshish, darslarni samarali borishini, o'quvchilarning chet tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saifnazarov, A. Muxtorov, A. Boboyev “Ilmiy tadqiqot metodologiyasi” O'quv-uslubiy qo'llanma Toshkent- 2014
2. Griebhaber. “Schreiben in der Zweitsprache Deutsch. Anforderungen und Besonderheiten.“ 2008.
3. Die Entwicklung der Lesekompetenz im DaF-Unterricht. Katharina Zobel. 2001
4. Vivien Lukas „Lese-und Schreibkompetenz. Entwicklung und Förderung“ Term Paper, 2020.
5. G. Burxanova, G.Djanalieva, G.Eldasheva, N.Rejametova, F.Bobojonova. O'quv mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish metodikasi. O'quv-metodik qo'llanma. Toshkent, 2015 y.